

OILAVIY MUHITNI YAXSHILASH YO‘LLARI

**Oiladagi ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilashni
istaganlar uchun psixologlar maslahati**

01. OILANGIZNI QO‘LLAB-QUVVATLANG

Qo‘llab-quvvatlash - bu qiyin vaziyatda o‘zingizni yolg‘iz his qilmaslik, qo‘rquvni yengish va eng qiyin masalalarni hal qilishning imkonini beradi.



02. MINNATDORCHILIK BILDIRIB TURING

Tabassum, quchoqlash va samimiy aytilgan "Rahmat", degan so‘z oiladagi ijobiy munosabatlarni kuchaytiradi.



03. HAR QANDAY KELISHMOVCHILIK, MOJARONI E‘TIBORSIZ QOLDIRMANG

Vujudga kelgan barcha muammolar harakatni, yechimni talab qiladi. Boshingizni qumga tiqmang. O‘zingizni go‘yo hech narsa sodir bo‘lmayotgandek ko‘rsatishga urinmang. Har bir oila a‘zosiga mos keladigan yechim bor va uni maslahatlashib, kelishib topish oilaviy ahillik va farovonlikni o‘rnatishga yordam beradi.

04. HAR BIR OILA A‘ZOSINING, HATTO BOLALAR-NING FIKRINI HAM HISOBGA OLING

Barcha manfaatdor tomonlarni oilaviy masalalarni muhokama qilishga jalb qilish kerak. Ba‘zan vaziyatga yangicha qarashga yordam beruvchi oilaning eng yosh a‘zosi bo‘lishi ham mumkinligini unutmang.



05. OILA A‘ZOLARINGIZGA ISHONING

Ochiqlik, halollik va ishonch har qanday farovon oilaning doimiy hamrohidir. Siz quvonchni ham, muammolarni ham baham ko‘rishingiz kerak, chunki faqat birgalikda siz to‘g‘ri yechimni topishingiz va munosabatlarning samimiyligini saqlashingiz mumkin.

06. BIR-BIRINGIZGA ATAYLAB G‘AMXO‘RLIK QILING

Bir birlariga yordam beradigan hamma oilalarda sezgir, ziyrak va mehribon bolalar o‘radi. Ular boshqalarga mehr berishga va boshqalardan g‘amxo‘rlikni qabul qilishni o‘rganib katta bo‘lishadi.



07. BIR-BIRINGIZ BILAN HAMDARD BO‘LING

Jigarining qayg‘usiga munosabat bildirish, uning hissiy holatini tushunish va muammoni o‘zi orqali o‘tkazishga harakat qilish har bir insonning qo‘lida. Ruhiy yaqinlik va hamdardliksiz oilada uyg‘unlik, ahillik, birdamlik bo‘lishi mumkin emas.



08. OILA PSIXOLOGIYASINI O‘RGANING

Oila psixologiyasi kurslarida siz nafaqat odamlarga qaror qabul qilish va xatti-harakatlarini o‘zgartirishga yordam berish usullarini o‘zlashtirishingiz, balki shu bilan o‘z hayotingizni ham tubdan o‘zgartirishingiz mumkin.

